

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING AHAMIYATI

Mohichexra Kamolova Abdulla qizi

Termiz davlat Pedagogika instituti Pedagogika va San'at fakulteti

Texnologik ta'lim yo'nalishi talabasi

kamolovamohichexra3@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogika sohasida pedagogik texnologiya tushunchasining qo'llanilishi, muhim jihatlari, ilmiy nazariy asoslari haqida fikr yuritiladi. Uning rivojlanish tarixi yoritiladi, muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, didaktika, rivojlanish tarixi, loyihalash, komponent.

KIRISH:

Hozirgi kunda pedagogik texnologiya tushunchasi sohalarda keng qo'llanilmoqda. Oliy maktab oldida pedagogik texnologiyaning ilmiy asoslari, ularning tasnifi, mohiyatini ochib berish va o'quv jarayonining texnologikligi muammolarini ta'minlash masalasi turibdi. Pedagogik texnologiya pedagogning talabalarga ta'sir qilishni tashkil etish bo'yicha kasbiy ahamiyatga molik malakalar tizimini aniqlab beradi, pedagogik faoliyatning texnologikligini anglash usullarini taklif etadi.

Hozirgi davrda pedagogik texnologiya tushunchasi ta'lim amaliyoti va nazariyasi ilmidan mustahkam o'rin egalladi, lekin uni pedagogikaning mukammal lug'atlaridagi o'rni hali noma'lumligicha qolib kelmoqda.

Pedagogik texnologiya tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi tarixida turli qarashlar mavjud bo'lgan: u texnik vositalar haqidagi ta'limot deb, hamda o'qitish jarayonini loyihalashtirilgan holda izchil va muntazam tashkil etish deb talqin qilingan. Hozir pedagogik texnologiyaning bir qancha ta'riflari mavjud.

«Pedagogik texnologiya— bu ta'lim shakllarini jadallashtirish vazifasiniko'zlagan o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika vainson omillarida va ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etishva belgilashning izchil metodidir» (YUNESKO)

Pedagogik texnologiyaning asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

1. Pedagogik muloqot texnologiyasida o'qituvchi (pedagog)ning o'quvchi-talabalar bilan muloqoti.

Muloqotning vazifalari:

- shaxsni tanish, axborot almashish;
- kelgusi pedagogik muloqotni modellashtirish va tahlil etish;
- muloqotdan olinadigan tasawurlar;

- muloqot yuzasidan fikrlash va fikr almashish;
- pedagogik muloqotni tashkil etishning texnikasi va texnologiyasi;
- ishga ijodiy yondashish va boshqalar.

Pedagogik talab texnologiyasi.

- «pedagogik talab» tushunchasi, uning o'ziga xos xususiyatlari
- xulq-atvor va ijtimoiy-madaniy qoidalarning namoyon bo'lishi;
- o'quvchi-talabaga bo'lgan hurmat va talab;
- pedagogik talabning psixologik tamoyillari va mezonlari.

2. Baholash texnologiyasi, pedagogik baho va uni mezonlash.

- xatti-harakatlardan olingan taassurot, voqelikni, obyekt va subyektini qabul qilish;
- baho berish usullarini tanlash, o'qituvchi(pedagog)ning o'z imkoniyatini tahlil etishi va ta'sir samaradorligini oshirishi);
- pedagogik baholash texnologiyasi.

3. Axborotning ta'sir ko'rsatish texnologiyasi.

- nutqiy-axborot berish, «ratsional axborot berish» tushunchalari, demonstratsion va ko'rgazmali vositalar-axborot olish

vositalaridan biri sifatida;

- nutqiy ta'sir etish, suhbat, ham korlik, tezis, argum ent, ko'rgazmalar va obrazlar;
- nutqiy ta'sir etish texnologiyasi;

- demonstratsion va ko'rgazmali vositalar, etik, iqtisodiy, estetik, gigienik materiallar;

- qabul qilishning fiziologik va psixologik xususiyatlarini demonstratsiya qilish texnologiyasi.

4. Pedagogik vaziyatiami yaratish va uni yechish texnologiyasi.

- pedagogik konflikt tushunchasi — konflikt pedagogik texnologiya elementi sifatida, konflikt subyektlari orasidagi qarama-qarshiliklar, bo'sh va mazmunli konflikt;

- holat tahlili (voqeani aniqlash);
- konflikt,
- konfliktning xilma-xilligi (norozilik, qarshi chiqish);
- konfliktni yechish shakllari (yumor, hazil, mutoiba).

Zamonaviy pedagogik texnologiyaning qo'shimcha elementlari:

1. Psixologik muhit yaratish texnologiyasi.
2. Guruh faoliyatini tashkil etish texnologiyasi.
3. Muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz holatlami tashkil etish texnologiyasi.
4. O'quvchining xatti-harakatiga pedagogik reaksiya qilish texnologiyasi.
5. Xulqi va odobi yomon o'quvchi-talabalar bilan ishlash texnologiyasi.

6. Etik himoya texnologiyasi
7. Muammoli vaziyatlar yaratish texnologiyasi.
8. Pedagogik vosita texnologiyasi.
9. Pedagogik improvizatsiya texnologiyasi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga qo'llash bo'yicha respublikamizning ko'zga ko'ringan olimlari tomonidan rivojlangan mamlakatlarda muvaffaqiyat bilan qo'llanib kelaniyotgan pedagogik texnologiyalarni ilmiy asosda qiyosiy tahlil qilib, xalqimizning milliy pedagogika an'analaridan ham da ta'lim sohasining shu kundagi holatidan kelib chiqqan holda O'zbekistonning milliy pedagogik texnologiyasini yaratishga harakat qilinmoqda va bu sohada ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirildi.

Ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilarimizning bugungi kundagi asosiy vazifasi bu texnologiyani chuqur o'rganib, o'zining kundalik pedagogik amaliyotida qo'llashdir.

Pedagogik texnologiyani boshqa ta'lim usullaridan ajratib turadigan o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardir:

Birinchidan, avval bir necha bor tak'irlaganimizdek, pedagogik texnologiya sinergetik dunyoqarashdan kelib chiquvchi obyektiv narsa va hodisalarga majmuiy yondashuv tamoyiliga asoslanadi.

Avvalgi pedagogik usullar, tuzilishi jihatidan erkin bo'lib, dars tarkibini belgilash faqat o'qituvchi ixtiyorida bo'lgan.

Ikkinchidan, pedagogik texnologiyada oldindan belgilangan asosiy maqsadga erishish kafolatlangan. Boshqa barcha pedagogik usullarda ta'lim-tarbiya faohyatining kafolatlangan natijasi mavjud bo'lmay, stixiyali natijalar bilan kifoyalanib kelingan.

Uchinchidan, pedagogik texnologiyada, asosiy maqsadga erishish bosqichma-bosqich amalga oshirilib, har bir bosqichda ol-

dinga qo'yilgan maqsadlar, bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar va talab qilinadigan vositalar hamda usul va uslublarning aniq modullari hosil qilinadi. Boshqa pedagogik usullarda ta'lim-tarbiya jarayonining yakunida umumiy maqsad qo'yilib, unga erishish yo'llari o'qituvchining ixtiyoriga havola qilingan.

To'rtinchidan, pedagogik texnologiya universal xususiyatga ega bo'lib, uni har bir mutaxassis, a'lo bo'lmasa ham, yaxshi amalga oshira oladi. Darsning intensivligiga va samaradorligiga pedagogning mahorati va shaxsiy sifatlari deyarli ta'sir etmaydi. Chunki darsning loyihasi, awaldan, mahoratli metodist-o'qituvchilar tom onidan tuziladi. Avvalgi dars berish usullarini amaliyotda qo'llashda ma'lum darajada o'qituvchining pedagogik mahorati, shaxsiy sifatlari yetakchilik qilgan.

Beshinchidan, pedagogik texnologiya yordamida dars o'tganda,

ta'lim jarayonini doimiy va to'liq nazorat qilish imkoni mavjud.

Avvallari o'qituvchilar bunday imkoniyatga ega emas edilar.

Oltinchidan, pedagogik texnologiya yordamida ta'lim jarayonini amalga oshirganda uning natijasi talabalarda ko'nikma hosil qilish bilan yakunlanadi. Boshqa pedagogik usullar yordamida dars berganda, talabalar berilgan bilimni zo'rg'a eslab qola olardilar, xolos.

Yettinchidan, pedagogik texnologiya Davlat ta'lim standartlariga erishishni kafolatlaydi va sarflanishi talab qilingan vaqt, kuch hamda vositalarni me'yorga keltiradi.

V.P.Bespalko pedagogik texnologiyani amaliyotga tatbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi sifatida belgilaydi. U pedagogik tizim texnologiyalar ishlab chiqarish uchun asos bo'ladi, deb hisoblaydi. Bunda asosiy diqqat o'quv-pedagogik jarayonini oldindan loyihalashga qaratiladi, didaktik vazifa va o'qitish texnologiyalari tushunchasidan foydalaniladi. Shu tariqa V.P.Bespalko o'quv jarayonini loyihalash g'oyasini ilgari suradi. Afsuski, hozirgi qadar pedagogik texnologiya va loyiha tushunchalari haqida aniqlik yo'q.

M.V. Klarin fikricha, "Pedagogik texnologiya-o'quv jarayoniga texnologik yondashgan holda, oldindan belgilab olingan ko'rsatkichlardan maqsad kelib chiqib, o'quv jarayonini loyihalashdir". V.P. Bepalkoning o'zbekistonlik shogirdlaridan N. Sayidahmedov va M. Ochilovlarning fikricha, "Pedagogik texnologiya — bu o'qituvchi (tarbiyachi) ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba) larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir". I.Ya. Lernerning fikriga ko'ra, "Pedagogik texnologiya-o'quvchilar harakatlarida aks etgan o'qitish natijalari orqali ishonchli anglab olinadigan va aniqlanadigan maqsadni ifodalaydi". O'zbekistonlik metodist B.L. Farberman pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif beradi: "Pedagogik texnologiya-ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv bo'lib, pedagogikada ijtimoiy-muhandislik ongi ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga soladigan, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog'liq ijtimoiy hodisadir. Insoniyatning rivojlanish davrlari almashganda pedagogik texnologiyalar butunlay yo'q bo'lib ketmaydi, balki pedagogik texnologiyalar keyingi davrlarga assotsiatsiya orqali fikran bog'lanadi, yangi sifatlar, xususiyatlarga ega bo'lib, kuchayadi va boyiydi. Ushbu jarayon borgan sari tezlashib boradi.

Texnologik yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat o'qitish texnologiyalari bo'sh texnologiyalanganligi bo'yicha qolib ketmoqda. Bir qator texnologiyalarda nazariy asoslar kuchaytirilgan bo'lib, amaliy tomoni u qadar oydinlashtirilmagan.

Pedagogik texnologiyada hali ko'p aniqlanmagan masalalar bor. Bu muammoni tadqiq etish, o'qitish texnologiyasining tushunchasi va metodologik mohiyatini anglash bilan bog'liq. Pedagogik texnologiya o'ziga xos va potensial yaratiladigan pedagogik natijalarga erishish uchun, pedagogik tizimning barcha tashkiliy tomonlariga aloqador nazariy va amaliy (ta'lim tizimi doirasida) tadqiqotlar sohasi sifatida belgilanadi.

Bu ta'riflar tahlilidan pedagogik texnologiya natijani qo'lga kiritish uchun ta'lim doirasida zarur bo'lgan vositalar tizimini rejalashtirish va tatbiq etish degan xulosaga kelish mumkin.

Xulosa :

Texnologik taraqqiyot bugungi kunda ijtimoiy jarayonlarni kuzatib borishga qodir eng muhim komponentlardan biridir. Pedagogik ta'lim texnologiyasini yaxshilash jamiyat madaniy saviyasini va uning iqtisodiy qudratini shakllantirish shartidir. Pedagogik texnologiya-ta'lim texnologiyasi, yangi pedagogik tajriba, yangi pedagogik texnologiya, zamonaviy pedagogik texnologiya. axborot texnologiyasi, yangi tajriba, ta'lim-tarbiya metodlari tushunchalarini qamrab oladi. Demak, pedagogik texnologiya didaktik vazifalarni samarali amalga oshirish, shu sohadagi maqsadga erishish yo'li bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. N.N. Azizxo'jayeva, "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat". O'quv qo'llanma.-T.; O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2006.
2. Bepalko. V.P. Pedagogika va ilg'or ta'lim texnologiyalari.-M. 1995.
3. H.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madyarova, E. U. Eshchanov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. "IQTISOD-MOLIYA". 2009.
4. Azizxo'jaeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. — Toshkent: TDPU, 2003.
5. S.I. Mirhayitova. Pedagogik texnologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent-2020
6. M. Tojiyev, B. Ziyamuxamedov, M. O'ralova. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA VA PEDAGOGIK MAHORAT FANINING O'QUV MASHG'ULOTLARINI LOYIHALASH. "TAFAKKUR-BO'STONI". TOSHKENT — 2012